



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQIY BILIMNI RIVOJLANTIRISHDA ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI QO'LLASH YO'LLARI

Zoirova Mehriniso Xurshid qizi

Annotatsiya: Maqolada “Milliy o’quv dasturi” da belgilangan amaliy fanlar uchun qabul qilingan 3 ta asosiy kompetensiyalardan biri Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasidan amaliyotda qanday foydalanish mumkinligi haqida metodikalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: metodika, xususiy metodika, Oliy ta’lim, boshlang’ich sinflar, steam, darsliklar, rasm, texnologiya, tabiat, tarbiya, musiqa savodi, musiqa tinglash.

Yurtimiz farzandlari, o’quvchi yoshlar, talabalarimizning shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda o’z mustaqil fikrlari, qarashlari, qiziqishlari erkinlik ostida olib borilmoqda. Demoqchiman-ki mamlakatimizdagi berilayotgan imkoniyatlar faqat shaxsning foydasiga xizmat qilmoqda va biz buni vaqtida qadriga yetishimiz lozim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Kuy qo’shiqqa, san’atga muhabbat bolaligimizdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira rubob yoki boshqa cholg’u asbobi bo’lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o’z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin. Eng muhimi bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko’proq va kuchliroq ta’sir ko’rsatmoqda”.

“Metodika”- so’zi pedagogika, psixologiya, estetika va san’atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi va bilish o’rganish degan ma’noni anglatadi.

“Xususiy metodika”- esa bitta fanning uslubi deganidir.

Har qanday o’quv dargohlarida ta’lim mazmunining asosi va sifati o’qituvchi olib boradigan metodika asosida quriladi. O’quvchilar boshlang’ich sinfdan toki Oliy ta’lim dargohlarini tamomlab bir kasb egasi bo’lgunga qadar ustozlari metodikasi asosida qurilgan bilimlar asosida shakllanadi. Ta’lim beruvchining metodikasi shu qadar kuchli bo’lishi



kerakki ham pedagogic, ham psixologik, ham madaniy, ma'rifiy jihatdan yuqori shakllangan bo'lsa o'quvchi ongiga bu bilimlarni yetib borishida bo'shliq qoldirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida musiqa madaniyati fanini o'qitish va rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasini 2035- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29.04 dagi PF-5712 sonli farmoni asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi" va 2020- yil 23- sentyabdagi "Milliy o'quv dasturi" qabul qilindi. Bu Milliy o'quv dasturida amaliy fanlarni shu jumladan musiqa madaniyati fanini ham STEAM dasturi orqali o'qitishni joriy etdi.

Steam ta'limi DTS asosida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liq ekanligini ko'rsatish, ijodkorlik va yangiliklar yaratishni rivojlantirishga qaratilgan ta'limdir.

Musiqa madaniyati fanini rivojlantirishda bugunga qadar qator o'quv dasturlar yangidan yangi darsliklar, yangi texnologiyalar kiritilib kelinyabdi va bu albatta juda yaxshi samarasini ko'rsatmoqda. Boshlang'ich sinflarda darsliklar o'zgarib o'quvchi uchun sodda, qiziqarli va musiqa savodi uchun yaratilgan mashq daftarlar juda o'rni bo'lgan. Bugunga qadar yaratilgan ilmiy adabiyotlarda musiqiy bilimga ega bo'luvchi o'quvchi yoshlarni mustaqil, ijodiy fikrlashga, o'z- o'zini shakllantirish va rivojlantirishga o'rgatish borasida turlicha qarashlar, fikrlar mavjud. Musiqiy ta'lim mutaxassisleri metodistlari fikricha o'quvchini ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rgatish mustaqillik davri o'zbek pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan deb topganlar va bu fikrlar juda asosli. Har bir fan uchun va tayanch kompetensiyalar bu qarashlarga yordam beradi. Amaliy fanlar uchun 3 ta kompetensiya asos qilib olingan bo'lsa shulardan biri "Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish" kompetensiyasi sanaladi. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan chegaralanmasdan amalyot bilan ishlash ko'zda tutilgan.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni estetik madaniyatini rivojlantirishimizda faqat musiqa madaniyati fani uchun emas balki boshqa fanlar bilan integratsiyani bog'lagan holda olib boriladi. "Estetik tarbiya – estetik his tuyg'u estetik ong va munosabatni



shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiyaning maqsadi o'quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun axloqiy insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish⁹⁸, kabilarni o'ziga maqsad qilib oladi.

Sinxonada 30- 20 ga yaqin o'quvchi bo'lsa ularning hammasini san'atni sevadi, yoki estetik his tuyg'u va tarbiyaga ega deb aytolmaymiz. Boshlang'ich sinfdan bu tarbiyani olib borishda esa musiqa darslarida musiqa tinglash faoliyati bizga katta yordam beradi.

O'quvchilarning musiqa tinglash jarayonida ularning hayoliy tasavvurlarini uyg'otish va uni qog'ozga tushirish metodikasini qo'llash va musiqa tinglash jarayonlaridagi tasavvur reaksiyalari bilan suhbat qurib o'rtoqlashish esa ularda mustqail fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu uchun biz rasm, texnologiya, o'qish, atrofimizdagi olam, tarbiya kabi fanlardan foydalansak, ham fanlar aro integratsiyani bog'laymiz, ham kompetensiyaning asosiy mazmunini ochib berishimiz mumkin.

Ijodkorlikni rivojlantirishda esa nazariy bilimlarga asoslanib amaliy faoliyatda qo'llash muhimdir. Masalan musiqa ,madaniyati darslarida berilgan nazariy bilimlardan boshlang'ich sinflar uchun skripka kaliti mavzusi yoki notalar joylashuvi, shunga o'xshash mavzular o'tilganda ularni yasash, bezatish, chizish vazifalarini amaliy cholg'ularda sinab ko'rish kabi faoliyatlarni amalga oshirish mumkin.

O'quvchilarni dars jarayonida qiziqish uyg'otishda, estetikasini, madaniyatini yukasaltirishda, ijodkorlikni oshirishda ularga o'tiladigan dars jarayoni vas inf xona tashqi muhit jihozlanishi, tashqi muhitdagi go'zallik ham katta ahamiyatga ega. Amaliy fanlar xonalari ran- baranglikka asoslanishi va materiallarning xilma- xilligi ham e'tiborda bo'lishi kerak. O'quvchini estetik tarbiyasini, qalbida go'zallik, muhabbat uyg'onishida musiqa bilan nafaqat bular ham uyg'un holda amalga oshirilishi kerak. Faqat musiqaning o'zi kamlik qiladi. Demoqchimanki Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi dars jarayonida ko'rgazmali qurollar, yuqorida aytilgandek boshqa amaliy fanlarga doir rasmlar, xilma- xil

⁹⁸ Maqola. "O'quvchilarni estetik tarbiyalashni rivojlantirish". G'G'ulomova. T-2022.



qo'l mehnatlari orqali yaratilgan narsalarning hech bo'lmaganda sur'atlarini ko'rsatib, ularni mavzuga munosib musiqa mos qilib bog'lab ko'rsatish estitikaning ham ijodkorlikning ham o'sishiga katta yordam beradi.

Xulosa shuki tarbiyaning qay bosqichi va qay bo'g'inida bo'lishdan qat'iy nazar go'zallik, musiqa, san'at, madaniyat kishi ongiga tez va maqsadli kirib boradi va bu bilan ko'zlangan natijaga oson erishish mumkin. Ta'lim bosqichlarimizda musiqa madaniyati fani o'quvchini faqat estetik tarbiyalash va musiqa bilan tanishtirish emas balki, undagi qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va san'atimizni, milliy musiqa madaniyatimizni kelgusi avloq qo'ligacha yetib borishini mustahkam ta'minlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibrohimov O.A., Xudoev G'.M. "Musiqa tarixi". Toshkent-2018
2. N.Yuldasheva, N.Raxmatova. "O'zbek musiqa adabiyoti". T. 2016.
3. "Musiqa madaniyati fani o'qitilishida o'quvchilar kompetentligini oshirish texnologiyalari" nomli dissertatsiya. Termiz-2021. 30-31 betlar.
4. Sinf dan va maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlarining o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda tutgan o'rni" Salayev Fazliddin O'ralovich MD Samarqand- 2011.
5. www.ziyonet.uz
6. www.arxiv.uz